

«ORIENT FINANS» XATB \_\_\_\_\_ AB/filiali, keyingi o'rinlarda Bank deb nomlanadi, boshlig'i/boshqaruvchisi \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va \_\_\_\_\_ keyingi o'rinlarda Tashkilot deb nomlanadi \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ asosida faoliyat yuritib, ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

## 1. SHARTNOMANING MAZMUNI

- 1.1 Ushbu shartnoma Bank bilan Korxonaga o'rtasidagi quyidagi munosabatlarni tartibga soladi:
  - a. sotilgan tovar, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat uchun xalqaro plastik kartalardan to'lov qabul qiladigan to'lov terminalini ijaraga berish;
  - b. Korxonaga nomidan terminaldan amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha avtorizatsiya va boshqa so'rovlarni Bankda qayta ishlash;
  - b. Yuqoridagi to'lovlar bo'yicha Korxonaga qoplash summalarini o'tkazib berish.
- 1.2 Ushbu shartnoma imzolamayotganda Korxonaga Bankka Shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq to'ldirilgan So'rovnomaning topshiradi.

## 2. TUSHUNCHALARNING TA'RIFI

- 2.1 **Shartnoma** - ushbu shartnoma hamda uning ilova va qo'shimchalari.
- 2.2 **Karta** - xalqaro to'lov tizimi standartlari va talablariga mos keladigan, amal qiladigan xalqaro plastik karta.
- 2.3 **Karta egasi** - yuz tomonida ismi yozilgan va orqa tomoniga imzosining namunasi qo'yilgan karta egasi.
- 2.4 **Terminal** - xalqaro plastik kartalardan to'lov qabul qiladigan elektron dasturiy texnik vosita, PIN kod (PIN pad) kiritishga mo'ljallangan qo'shimcha vositalar bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.
- 2.5 **Bank-emitent** – karta egasining kartasini chiqargan va karta bilan operatsiya o'tkazishda shu operatsiyani tasdiqlaydigan bank.
- 2.6 **Avtorizatsiya** - emitent bank karta egasi karta bilan operatsiya o'tkazishga beradigan va to'lovni bajarish majburiyatini paydo qiladigan ruxsat.
- 2.7 **Avtorizatsiya kodi** - Avtorizatsiya natijasida olinadigan, avtorizatsiya o'tkazilganda terminal chekiga yozib qo'yiladigan harfli-raqamli kod.
- 2.8 **Protssessing markazi** - avtorizatsiya o'tkazadigan, xalqaro to'lov tizimlari bilan bog'lanadigan va o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlaydigan Bankning dasturiy apparat majmui.
- 2.9 **To'lov** – sotilgan tovar, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat haqini to'laganda karta egasining kartasidagi pul olinishi uchun avtorizatsiya so'ralishi.
- 2.10 **Bekor qilish** – sotib olingan tovar yoki xizmat qaytarib berilganda, muvaffaqiyatli o'tgan avtorizatsiyani bekor qilish haqidagi so'rov. Bu operatsiya faqat natijalarni solishtirish (sverka itogov) operatsiyasi amalga oshirilgunga qadar bajarilishi mumkin.
- 2.11 **Qaytarish** – oldin sotib olingan tovar yoki xizmat bekor qilinib qaytarib berilganda, pulni karta egasining kartasiga qaytarish so'ralgan avtorizatsiya operatsiyasi. Bu operatsiya natijalarni solishtirish operatsiyasidan keyin bajarilishi mumkin.
- 2.12 **Balans so'rovi** – karta egasining balansini tekshirish imkonini beradigan nomoliyaviy operatsiya, agar emitent bank ta'qiqlamagan bo'lsa.
- 2.13 **Natijalarni solishtirish** – terminal o'tkazgan avtorizatsiyalarni Bank Protssessing markazidagi ma'lumot bilan solishtirish operatsiyasi, terminal ish sikli muvaffaqiyatli tugaganini tasdiqlaydi.
- 2.14 **Charjбек** – emitent bankning (karta egasining huquqini himoya qilish maqsadida) tranzaksiyani rad etish tartibi, bunda to'lov summasi Bankdan akseptsiz olinib karta egasiga qaytariladi.
- 2.15 **Qo'l bilan kiritish** (ruchnoy vvod) - karta yoki uning egasi bo'lmaganda faqat karta rekvizitlari bilan terminalda operatsiya bajarish usuli. Bu xizmat faqat Korxonaning yozma arizasi bilan ulanadi.

## 3. UMUMIY QOIDALAR

- 3.1 Bank Korxonaga xalqaro plastik kartalarga xizmat ko'rsatadigan terminalni ijaraga beradi va uning vositasida Korxonaga sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qiladi.
- 3.2 Ushbu shartnomaga ko'ra Bank Korxonaga vaqtincha foydalanish uchun topshirgan terminal Bankning mulki hisoblanadi.
- 3.3 To'lovlarni amalga oshirish uchun terminal Internet tarmog'i orqali Bankning Protssessing markaziga ulanadi.
- 3.4 Sotilgan tovar, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat uchun Korxonaga qabul qilishi mumkin bo'lgan xalqaro plastik kartalar ro'yxati:
  - Maestro / Master Card / VISA / Union Pay
- 3.5 Terminalda to'lov o'tkazish ikki bosqichga bo'linadi:
  - Avtorizatsiyani bajarish;
  - Natijalarni solishtirish.
- 3.6 Avtorizatsiya to'lovlarni amalga oshirish, bekor qilish, qaytarish operatsiyasi o'tkazilganda yoki karta hisobraqamida qolgan pul mablag'i bo'yicha ma'lumot (balans) so'ralganda bajariladi.
- 3.7 Karta egasining emitent banki tasdiqlagan avtorizatsiyasi muvaffaqiyatli o'tgan deb hisoblanadi. Avtorizatsiya tugaganidan so'ng terminal operatsiya summasi, karta egasi va Korxonaga haqidagi ma'lumot yozilgan hamda to'lov o'tgani (MA'QULLANGANI) aytilgan va avtorizatsiya kodi ko'rsatilgan chekning 2 nusxasini qog'ozga chiqarib beradi.
- 3.8 Avtorizatsiya kodi terminalda operatsiya bajarilayotganda Protssessing markazidan olinadi. Protssessing markazining ma'lumotlar bazasida bo'lsagina kod Protssessing markazidan olingan, deb hisoblanadi.
- 3.9 Terminal Qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga asosan ijaraga beriladi (shartnomaning 2-ilovasi). O'tkazilgan avtorizatsiyalarni tasdiqlash va tekshirish uchun Korxonaga operatsiyalar bo'yicha natijalarni solishtirish operatsiyasini amalga oshiradi. Protssessing markazi o'tkazilgan avtorizatsiyalar yakunini tekshiradi va hisoblashish shartlariga muvofiq terminalda to'langan summani Korxonaga hisobiga o'tkazish uchun kerakli ma'lumotlarni tayyorlaydi.

- 3.10 Avtorizasiya (pul to'langanda yoki qaytarilganda) muvaffiqiyatli o'tishi va natijalarni solishtirish operatsiyasi o'rtasidagi oraliq muddat 3 ish kundan oshmasligi kerak.
- 3.11 Terminal buzilgani uchun Korxonaga birinchi solishtirilmagan avtorizasiya bo'lgan sanadan boshlab 3 ish kuni ichida bajarilgan to'lovlar bo'yicha qoplanadigan pullarni o'tkazish uchun "natijalarni solishtirish" operatsiyasini o'tkaza olmasa, Korxonaga Bankka yozma ravishda natijalarni solishtirish haqida ariza beradi va muvaffaqiyatli o'tgan avtorizasiya cheklarining nusxasini topshiradi. Yakuniy solishtirilganda farq bo'lmasa Bank cheklarni Protsessing markazining elektron reestri bilan qo'lda solishtirgandan so'ng, Korxonaga yozma ariza bergan vaqtdan boshlab 10 ish kuni ichida o'tkazilgan mablag'lar bo'yicha pullarni qoplab beradi.
- 3.12 Korxonaga shartnomaning 3-bo'limida ko'rsatilgan talablarga javob bermaydigan va Tovar va xizmatlar haqini to'lash uchun terminaldan foydalanish yo'riqnomasiga amal qilmagan operatsiyalari bo'yicha Bankka moliyaviy e'tiroz bildirishga haqli bo'lmaydi.

#### 4. HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

- 4.1 Korxonaga terminalni ro'yxatga olish va berish haqini, terminaldan foydalanganlik uchun oylik ijara haqini, inkassatsiya qilingan tushum aylanmasidan olinadigan komissiya haqini, inkassatsiya qilingan tushum aylanishi haqida o'tkazilgan tranzaksiyalar tafsiloti ko'rsatilgan hisobot berganlik uchun olinadigan komissiya haqini, shu xizmat taqdim etilgan kun Bankda amal qiladigan Tarifga muvofiq to'laydi.
- 4.2 Korxonaga Bank tomonidan berilgan terminalning ijara xaqini har oy, oldindan pul to'lash usuli bilan, joriy oyning 10-kunidan kechiktirmay, to'lov o'tkazilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining kursi bo'yicha va Bank Tariflariga muvofiq, taqdim etilgan to'lov talabnomasiga asosan to'laydi.
- 4.3 Ko'rsatilgan muddatgacha to'lov o'tkazilmasa to'qar to'liq to'languncha terminal Protsessing markazining xizmatidan uzib(o'chirib) qo'yiladi.
- 4.4 Shartnoma Korxonaning tashabbusi bilan bekor qilinganda terminalning oldindan to'langan ijara haqi qaytib berilmaydi.
- 4.5 Inkassatsiya qilingan tushum aylanmasidan komissiya haqi olib qolingandan so'ng (agar bo'lsa, olingan charjbeklar miqdori ham qo'shilib) to'lov operatsiyalari bo'yicha qoplanadigan summasi Korxonaga natijalarni solishtirish operatsiyasini amalga oshirgan vaqtdan boshlab 3 bank kundan kechiktirmay, ushbu shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan Korxonaning "Orient Finans" XATBda ochilgan AQSH dollaridagi hisobraqamiga o'tkaziladi.
- 4.6 Korxonaga mablag'i boshqa banklarga Korxonaning to'lov topshiriqnomasi bilan o'tkaziladi va Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Korxonaga haq to'laydi.

#### 5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 5.1 **Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:**
  - 5.1.1 Shartnoma tuzilganidan so'ng 10 ish kuni ichida Korxonaga xalqaro plastik kartalarga xizmat ko'rsatadigan terminal taqdim qiladi.
  - 5.1.2 Korxonaga xodimlariga terminaldan foydalanish qoidalarini o'rgatadi va terminal bilan ishlash qo'llanmasini beradi. Xodimlarni o'rgatgani haqida bayonnoma tuzadi (5-ilova).
  - 5.1.3 Korxonaning yozma arizasiga asosan, 3 ish kuni ichida inkassatsiya qilingan tushum aylanmalari haqida terminaldan o'tgan tranzaksiyalar bo'yicha batafsil ma'lumotlar ko'rsatilgan hisobot taqdim qiladi.
  - 5.1.4 Oldingi operatsiyalardan qancha charjbeklar olingani haqida Korxonani yozma ravishda xabardor qiladi.
- 5.2 **Bank quyidagi huquqlarga ega:**
  - 5.2.1 Bank filiallarida e'lon berib va Bankning rasmiy Internet sahifasida (www.ofb.uz) xabar joylashtirish yo'li bilan, kuchga kirishidan kamida 10 kun oldin Korxonani ogohlantirib, terminalga xizmat qilish tariflarini bir tomonlama o'zgartiradi.
  - 5.2.2 Korxonaga oldin o'tkazgan operatsiyalardan charjbeklar olingan taqdirda, Korxonaning farmoyishisiz, Korxonaga o'tkaziladigan umumiy mablag' miqdoridan, karta egalari e'tiroz bildirgan operatsiyalar summasini qoplash uchun chiqim qiladi.
  - 5.2.3 Lozim topganda Korxonaga xalqaro plastik karta rekvizitlarini terminalga qo'lda kiritish imkoniyati (ruchnoy vvod) berilishini rad etadi.
  - 5.2.4 Korxonaga rozilgisiz, ushbu shartnomaga asosan paydo bo'lgan qarzdorligini (ijara haqi, komissiya haqi va h.k.) Korxonaning milliy valyutadagi hisobraqamidan (agar Bankda shunday hisobraqami bo'lsa) echib oladi.
- 5.3 **Korxonaga quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**
  - 5.3.1 Ushbu shartnoma mazmuniga tegishli faoliyatni qonuniy amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talab qiladigan barcha hujjatlari bo'ladi;
  - 5.3.2 Karta egalari terminal bilan ishlash qo'llanmasiga mos keladigan kartalarini to'lov vositasi sifatida qabul qiladi;
  - 5.3.3 Muvaffaqiyatli bo'lgan avtorizatsiyadan so'ng 3 ish kuni ichida natijalarni solishtirish operatsiyasini amalga oshiradi;
  - 5.3.4 Terminal bilan ishlash qo'llanmasiga qat'iy amal qiladi (4-ilova);
  - 5.3.5 Terminal bilan ishlash qo'llanmasiga muvofiq karta egasining shaxsini aniq bo'lishiga to'liq javob beradi (4-ilova);
  - 5.3.6 Avtorizasiya o'tganidan so'ng olinadigan chekning ikkinchi nusxasini 1 yil saqlaydi va Bank talab qilganida 3 ish kuni taqdim etadi;
  - 5.3.7 Ushbu shartnomada belgilangan ijara haqi va komissiya haqini vaqtida to'lab beradi;
  - 5.3.8 Karta egasi o'tkazilgan operatsiyaga qarshilik bildirib emitent bankka murojaat qilganda yozma talab olganidan so'ng 3 ish kuni ichida qarshilik bildirilgan operatsiya summasini Bankka qaytaradi.
  - 5.3.9 Xodimlari ushbu shartnoma va uning ilovalaridagi talablarni buzgan holda kartalardan to'lovlarni amalga oshirgani uchun Bank oldida to'liq javob beradi.
  - 5.3.10 Tomonlar qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolagan vaqtdan boshlab Korxonaga uning hududiga o'rnatilgan jihoz yo'qolgani, buzilgani, tovar ko'rinishini yo'qotgani uchun (tabiiy amortizatsiya va eskirishdan tashqari) to'liq javob beradi (2-ilova). Aks holda Korxonaga Bankning terminalni ta'mirlash yoki almashtirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash majburiyatini oladi;
  - 5.3.11 Avtorizatsiya vaqtida Bankdan shunday buyruq olgan taqdirda, qonuniy yo'llar bilan to'lov uchun berilgan kartani ushlab turadi. Avtorizatsiya vaqtida Korxonaga olgan ushbu kartani tekshirish uchun Bankka topshiradi;
  - 5.3.12 Terminal qo'yilgan joyga (xalqaro plastik kartalarga xizmat qilish imkoniyati borligi haqidagi) Bank bergan reklama va ma'lumotlarni joylashtiradi (ilib qo'yadi);
  - 5.3.13 Ushbu shartnoma bekor qilingan taqdirda 5 ish kuni ichida ijaraga olgan mulkni Bankka qaytaradi;

- 5.3.14 Ushbu shartnomaga tegishli reklama materiallarini Bank bilan kelishib oladi;
  - 5.3.15 Korxonada terminalni protsessing markaziga ulaydigan telekommunikatsiya kanallarini tegishli xizmat provayderlaridan oladi va ularni ulash hamda foydalanish xarajatlarini o'zi to'laydi;
  - 5.3.16 Terminal ishlashi uchun zarur sarflanadigan materiallar ishlatiladigan jihoz turiga to'g'ri kelishi kerak va bunday materiallarni Korxonaning o'zi sotib oladi;
  - 5.3.17 Korxonada manzili va bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda zudlik bilan Bankka yozma xabar beradi.
  - 5.3.18 Terminal turadigan joyini o'zgartirishdan kamida 5 kun oldin Bankni bu haqda xabardor qiladi.
- 5.4 Korxonada quyidagi huquqlarga ega:**
- 5.4.1 Yozma so'rovga asosan, Bankdan, terminaldan o'tgan tranzaksiyalar bo'yicha inkassatsiya qilingan tushumlarning aylanishi haqida batafsil ma'lumot ko'rsatilgan hisobot so'raydi;
  - 5.4.2 Yozma so'rovga asosan Bankdan Korxonada xodimlariga qo'shimcha o'rgatish (instruktaj) berishlarini so'raydi;
  - 5.4.3 Yozma so'rovga asosan, Korxonaning boshqa savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalariga o'rnatish uchun Bankdan qo'shimcha terminal berishni so'raydi;
  - 5.4.4 Oldin o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha charjбек kelgani haqida xabar olgan vaqtdan boshlab 5 ish kun ichida Bankka charjбек ustidan qarshilik berilgani haqida yozma ariza beradi va o'zida bor hujjatlarning hammasidan foydalanib karta egasining noroziligi ustidan shikoyat qiladi;
  - 5.4.5 Kafolat xatiga asosan Bankdan xalqaro plastik kartadagi ma'lumotni POS terminalga qo'lda kiritishga ruxsat so'raydi (6-ilova).
  - 5.4.6 Yozma so'rov berib Bankdan xalqaro plastik karta egalari oldin olingan mablag'ni qaytarish operatsiyasi bajarilishini so'raydi (7-ilova).
  - 5.4.7 Bank tarifiga qo'shilgan o'zgartirishga rozi bo'lmagan taqdirda, o'zgartirish kuchga kirishidan oldin shartnomani bekor qiladi.
- 5.5 Korxonada quyidagilar ta'qiqlanadi:**
- 5.5.1 To'lov o'tganidan so'ng karta egasi tovar yoki xizmatni qaytargan taqdirda unga naqd pul berib xaridni qaytarib olmaydi;
  - 5.5.2 Terminalni va unda o'tkazilgan operatsiyalar haqidagi ma'lumotni uchinchi shaxslarga bermaydi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra nazorat funksiyasi bilan shug'ullanadigan tashkilotlar bu qoidadan istisno qilinadi.

## **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

- 6.1 Shartnomadagi majburiyatlarni bajarmaslik uni bekor qilish uchun asos bo'ladi.
  - 6.2 Bir tomon ikkinchi tomonga Shartnoma mazmuni bilan bog'liq masalada zarar etkazgan taqdirda aybdor tomon etkazilgan zararni to'lab beradi.
- 6.3 Quyidagi hollarda Bank javobgarlikdan ozod qilinadi:**
- 6.3.1 Shartnoma shartlariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga to'g'ri kelmaydigan operatsiyalar bo'yicha o'tkazilgan to'lovlar qoplanmaganda;
  - 6.3.2 Korxonada bank rekvizitlaridagi o'zgarishlarni vaqtda xabar qilmagani uchun to'lov o'tishi to'xtab qolganda.
  - 6.3.3 Bank xabar berganidan boshlab 10 kundan ortiq muddatdan keyin, Korxonada tomonidan munozarali charjбекlarga bildirilgan qarshiliklar uchun.
- 6.4 Korxonada quyidagilar uchun javob beradi:**
- 6.4.1 To'lov amalga oshirilayotganda to'lov summasini AQSH dollarida to'g'ri o'tkazishga;
  - 6.4.2 Bankka beriladigan har bitta ma'lumot to'g'ri bo'lishiga;

## **7. MAXFIYLIK**

- 7.1 Korxonada ham, Bank ham ushbu shartnoma doirasida oladigan ma'lumotlar sir saqlanishi uchun javobgar bo'ladi.
- 7.2 Tomonlar shartnoma doirasida bir-biriga topshiradigan ma'lumot sir saqlanadigan ma'lumot hisoblanadi. Tomonlar bir-biriga topshiradigan ma'lumotlar uchinchi shaxslarga oshkor bo'lmashligi uchun barcha zarur va etarli choralarini ko'rishadi.
- 7.3 Terminaldan to'lov o'tkazilgan karta egalari haqidagi shaxsiy ma'lumot ham sir tutiladigan ma'lumot hisoblanadi va bunday ma'lumot karta egalari yozma roziligi uchun uchinchi shaxslarga berilmaydi, biroq O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga nazarda tutatadigan hollar bundan mustasno.

## **8. FORS-MAJOR HOLATLAR**

- 8.1 Shartnoma tuzilganidan so'ng tomonlar o'z kuchlari bilan to'xtata olmaydigan engib bo'lmaydigan kuch (fors major) sababli to'liq yoki qisman bajarilmaganda tomonlar shartnomadagi majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.
- 8.2 O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq vakolatli organlar fors major holat deb e'tirof etganidan keyingina vaziyat engib bo'lmaydigan kuch deb hisoblanadi.
- 8.3 Tomonlar engib bo'lmaydigan kuch deb hisoblanadigan vaziyat boshlangani yoki tugagani haqida bir-birlarini yozma xabardor qilishlari shart.

## **9. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

- 9.1 Tomonlar Shartnomani bajargan vaqtda yuzaga keladigan barcha kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish bilan hal qilinadi.
- 9.2 Shartnoma bilan bog'liq nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal etilmasa, nizo O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq xalqaro plastik kartalarga xizmat ko'rsatadigan terminalni bergan Bank filiali (alohida bo'linmasi) joylashgan hududda tegishli sudga ko'rib chiqiladi/

## **10. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI**

- 10.1 Tomonlar Shartnomani o'zgartirishlari va unga qo'shimcha qo'shishlari mumkin.
- 10.2 Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar tomonlarning kelishuviga muvofiq tuziladi va yozma rasmiylashtiriladi.

10.3 Shartnomaga qo'shilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar uning ajralmas qismi hisoblanadi va tomonlar uchun bajarish majburiy bo'ladi.

#### **11. SHARTNOMA AMAL QILADIGAN MUDDAT**

- 11.1 Shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va 1 kalendar yiliga tuziladi.
- 11.2 Shartnoma quyidagi shartlar bilan bekor qilinishi mumkin:
- tomonlar shunga yozma rozilik berganda;
  - tomonlarning biri shartnomadagi majburiyatini bajarmaganda;
  - ehtimol qilinadigan bekor qilish muddatidan kamida 10 ish kuni oldin bir tomon boshqa tomonni yozma ogohlantirib, o'z tashabbusi bilan bekor qilganda.
- 11.3 Shartnoma tugatiladigan bo'lsa, tomonlar u tugatilgan kundan boshlab bir oyning ichida o'zaro hisob-kitoblarning hammasini to'liq to'lashlari kerak, biroq, agar Korxonaga oldin o'tkazgan operatsiyalari yuzasidan charjbek qo'yiladigan bo'lsa hisoblashish vaqti yuqoridagi muddat bilan cheklanmaydi. Jihoz Bankka soz holatda qaytarib beriladi va bu haqda jihazni qaytarish dalolatnomasi tuziladi (3-ilova).
- 11.4 Agar birorta tomon ham shartnomani bekor qilmasa, shartnoma keyingi kalendar yiliga uzaytirilgan deb hisoblanadi.

#### **12. YAKUNIY QOIDALAR**

- 12.1 Shartnoma bir xil qonuniy kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi, tomonlarning har biriga bir nusxadan beriladi va imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.
- 12.2 Shartnomaga muvofiq jo'natilishi kerak bo'lgan yoki u bilan bog'liq barcha bildiruv va xabarlar yozma rasmiylashtiriladi va buyurtma xat bilan yuborilsa yoki tomonlarning quyida ko'rsatilgan huquqiy manzillariga shaxsan olib borilsa hamda olingani tasdiqlansa topshirilgan deb hisoblanadi.
- 12.3 Ushbu shartnomada tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.
- 12.4 1-ilova - Korxonada xizmat nuqtasining so'rovnomasi.
- 12.5 2-ilova - Jixozni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi.
- 12.6 3-ilova - Jihazni qaytarish dalolatnomasi.
- 12.7 4-ilova - Terminal bilan ishlash qo'llanmasi
- 12.8 5-ilova - Korxonada xodimlarini terminaldan foydalanishga o'qitish bayonnomasi
- 12.9 6-ilova - Kafolat xati
- 12.10 7-ilova - Pul mablag'ini qaytarish haqida korxonada yozadigan xat namunasi

#### **13. TOMONLARNING REKVIZITLARI**

**Bank:**

**YUridik manzili:**

**Bank rekvizitlari:**

Imzo: \_\_\_\_\_  
M.O'.

**Korxonada:**

**YUridik manzili:**

**Bank rekvizitlari:**

Imzo: \_\_\_\_\_  
M.O'.



## JIHOZNI QABUL QILISH-TOPSHIRISH DALOLATNOMASI

\_\_\_\_\_ shahri

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

"ORIENT FINANS" XATB \_\_\_\_\_ filiali nomidan \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ va Korxonalar \_\_\_\_\_ nomidan \_\_\_\_\_,  
Bank vakili quyidagi jihozni **TOPSHIRGANI** va Korxonalar vakili shu jihozni **QABUL QILIB OLGANI** haqida ushbu DALOLATNOMANI tuzishdi:

№	Jihoz nomi	Birliklar soni	Bitta birlikning narxi (so'mda)	Seriya (inventar) raqami
1	Terminal _____	_____	_____	_____
2	PIN PAD			

Mulk Korxonalaraga soz holatda topshirildi. Ikki tomon vakillarining topilgan nosozliklarning xususiyati va sababi haqidagi xulosasi: **nosozlik topilmadi**. Tomonlar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumot yozilgan dalolatnomani imzolaganlik uchun javob berishlari haqida ogohlantirildi.

**Dalolatnoma bir xil ko'rinishli ikki nusxada tuzildi.**

**Bank nomidan:**

**Korxonalar nomidan:**

\_\_\_\_\_  
F.I.SH

\_\_\_\_\_  
F.I.SH

\_\_\_\_\_  
Imzo

\_\_\_\_\_  
Imzo

M.O'.

M.O'.

## JIHOZNI QAYTARISH DALOLATNOMASI

\_\_\_\_\_ shahri

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

"ORIENT FINANS" XATB \_\_\_\_\_ filiali nomidan \_\_\_\_\_  
va Korxonalar \_\_\_\_\_ nomidan \_\_\_\_\_, Korxonalar vakili  
quyidagi jihozni **TOPSHIRGANI** va Bank vakili shu jihozni **QABUL QILIB OLGANI** haqida ushbu DALOLATNOMANI tuzishdi:

№	Jihoz nomi	Birliklar soni	Bitta birlikning narxi (so'mda)	Seriya (inventar) raqami
1	Terminal _____	_____	_____	_____
2	PIN PAD _____	_____	_____	_____

Mulk qaytarilgan vaqtda soz holatda topshirildi. Ikki tomon vakillarining topilgan nosozliklarning xususiyati va sababi haqidagi xulosasi: **nosozlik topilmadi**. Tomonlar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumot yozilgan dalolatnomani imzolaganlik uchun javob berishlari haqida ogohlantirildi.

**Dalolatnoma bir xil ko'rinishli ikki nusxada tuzildi.**

**Bank nomidan:**

**Korxonalar nomidan:**

\_\_\_\_\_  
F.I.SH

\_\_\_\_\_  
F.I.SH

\_\_\_\_\_  
Imzo

\_\_\_\_\_  
Imzo

M.O'.


M.O'.

## Tovar va xizmatlar haqini to'laganda terminal bilan ishlash qo'llanmasi

Terminal tovar va xizmatlar haqini to'lash uchun Maestro, Master Card, VISA va UnionPay tizimlaridagi kartalarga xizmat qilishi mumkin. Iltimos, terminalni ishlatishdan oldin qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing.

### Terminalni ishga tushirish

Operasiya amalga oshirish uchun bankka simsiz GPRS aloqasi bilan ulanasiz. Ishlatishdan oldin o'zingiz tanlagan uyali aloqa operatorining SIM kartasini terminal pastida, akkumulyator turadigan joydagi «SIM» deb yozilgan slotga kiritasiz. SIM karta hisobidagi pul Internetga ulanish va ma'lumot jo'natishga etadigan bo'lishi kerak.

Terminal uning ichiga qo'yilgan akkumulyator orqali ishlaydi, shuning uchun foydalanishdan oldin kamida 5 soat akkumulyatorni quvvat oldiring. Akkumulyatori quvvat olganda terminal chirog'i yashil yonadi. Akkumulyatorning quvvati qolmasa chiroq qizil yonadi, shunda elektr kabelini ulash kerak. Akkumulyatorida quvvat bo'lmasa terminal karta bilan to'lovni amalga oshira olmaydi. Terminalni ishga tushirish uchun yashil rangdagi  tugmasini 5 sekund bosib ushlab turing. "KARTANI KIRITING" yozuvi chiqquncha kutib turing. Yoqilganidan so'ng ishlatilmasa terminal 5 daqiqadan keyin o'zi o'chib qoladi.

Akkumulyatorning quvvati bilan mobil tarmoqdan kelayotgan signal kuchi ekranning ustidagi holat satrida ko'rinib turadi.

### Qabul qilinadigan kartalar

Terminal Maestro, Master Card, VISA va UnionPay xalqaro plastik kartalarini qabul qiladi. Karta qabul qilinishini kartaning yuz tomonidagi to'lov tizimining logotipiga qarab bilish mumkin.




Kartaning old tomonida karta egasining ismi, familiyasi, karta amal qiladigan muddat va uning raqami yozilgan bo'ladi (agar korporativ karta bo'lsa tashkilot nomi yoziladi). Karta old tomonida ko'rsatilgan yildagi oynning oxirgi kunigacha ishlatilishi mumkin. Muddati o'tgan kartani ishlatib bo'lmaydi. Kartaning orqa tomoniga karta egasining imzosi qo'yilgan bo'ladi.

**Agar kartani taqdim etgan shaxs uning egasi ekaniga shubhalanayotgan bo'lsangiz operatsiya o'tkazishdan oldin kartadagi ma'lumotni shaxsini tasdiqlaydigan hujjatdagi ma'lumot bilan solishtirib plastik karta egasining shaxsini tekshirib ko'ring. Agar ma'lumot to'g'ri kelmasa (boshqa shaxsning kartasi taqdim qilinganda) operatsiyani o'tkazish mumkin emas.**

Karta mikroProtessorli chip yoki kartadagi magnit tasma o'qilganidan so'ng qabul qilinadi. Agar kartaga chip qo'yilgan bo'lsa faqat chip ishlatilib qabul qilinadi.

Kartani terminaldagi riderga (chip o'qigichga) qo'ying (1-rasm) yoki kartaning magnit tasma o'qigichdan (2-rasm) o'tkazing (magnit tasma terminal tomonga qaragan bo'lishi kerak).



Ekranda o'tkazish mumkin bo'lgan operatsiyalar ro'yxati ko'rinadi:






**TO'LOV** – mijoz kartasidagi pulni tovar yoki xizmatga to'langan pul miqdoriga kamaytirish operatsiyasi.

**BEKOR QILISH** – chiqarilgan summa noto'g'ri bo'lganda yoki operatsiya bajarilgandan so'ng mijoz uni o'tkazishni rad etganda, o'tkazilgan operatsiyani bekor qilish (o'sha operatsion kunning (OK) o'zida terminaldagi operatsiyalar natijalarni solishtirish operatsiyadan oldin amalga oshirish mumkin).



**QAYTARISH** – natijalarni solishtirish operatsiyasi tugagandan so'ng mijoz oldin puli to'langan tovarni qaytarganda xaridni qaytarish.

**BALANSNI SO'RASH** – mijoz hisobida qancha pul qolganini bilish uchun so'rov berish.

### TO'LOV

1. Menyuda **TO'LOV** bandiga o'tib yashil tugmani  bosib (oldindan tanlab qo'yilgan).
2. Operatsiya o'tkazish uchun mijoz hisobini tanlang (tanlab qo'yilgan).
3. Operatsiyaning to'liq summasini kiriting. To'g'rilash kerak bo'lsa sariq tugmani  bosasiz, kiritilgan summa to'g'riligini tasdiqlash uchun esa yashil tugma  bosiladi.
4. Mijozdan PIN kod kiritishini so'rang va yashil tugma  bosib tasdiqlanadi.
5. Operatsiya tugab, chek chiqishini kutib turing.
6. Operatsiya muvaffaqiyatli o'tsa chekka MA'QULLANDI deb yoziladi. CHEkning birinchi nusxasini yirtib oling va yashil tugmani  bosib chek nusxasini oling. Biror xatolik bo'lsa yoki ishlamas qo'llanmaning "Bo'lishi mumkin bo'lgan xatolar" bo'limida yozilganlarga amal qiling.
7. Mijozdan chekning ikki nusxasidagi MIJOZ satriga qo'l qo'yishini so'rang.
8. CHEkning ikki nusxasidagi KASSIR satriga qo'l qo'ying.
9. Mijoz kartasini terminal rideridan (o'qigichidan) chiqarib oling.

### BEKOR QILISH

1. Menyuda BEKOR QILISH bandini tanlang (buning uchun F1-F4 tugmalari bosiladi) va yashil tugmani  bosib.
2. Bekor qilinadigan KASSIR CHEKI raqamini kiriting va yashil tugmani  bosib.



- Operasiya summasini tekshirib ko'ring va yashil tugmani  $\rightarrow$  bosib tasdiqlang. Agar summa noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa X qizil tugmasini bosib operatsiyani bekor qiling, chek raqami to'g'ri kiritilganini tekshirib ko'ring va yana bir marta qaytaring.
- Operasiya tugab, chek chiqishini kutib turing. Ikkinchi chekni chiqarish uchun yashil tugmani  $\leftarrow$  bosing.
- Mijoz kartasini terminal rideridan (o'qigichidan) chiqarib oling va mijozga chekning birinchi nusxasini bering.

#### QAYTARISH

- Menyuda QAYTARISH bandini tanlang (buning uchun F1-F4 tugmalari bosiladi) va yashil tugmani  $\rightarrow$  bosing.
- Operasiya o'tkazish uchun mijoz hisobini tanlang (tanlab qo'yilgan).
- Operatsiyaning to'liq summasini kiriting. To'g'rilash kerak bo'lsa sariq tugmani  $\rightarrow$  bosasiz, kiritilgan soni to'g'riligini tasdiqlash uchun esa yashil tugma  $\rightarrow$  bosiladi.
- Mijozdan PIN kod kiritishini so'rang, yashil tugmani  $\rightarrow$  bosib kiritilgan sonni tasdiqlanadi.
- Operasiya tugab, chek chiqishini kutib turing.
- Operasiya muvaffaqiyatli o'tsa chekka MA'QULLANDI deb yoziladi. Chekning birinchi nusxasini yirtib oling va yashil tugmani  $\rightarrow$  bosib chek nusxasini oling. Biror xatolik bo'lsa yoki ishlamas qo'llanmaning "Bo'lishi mumkin bo'lgan xatolar" bo'limida yozilganlarga amal qiling.
- Mijozdan chekning ikki nusxasidagi MIJOZ satriga qo'l qo'yishini so'rang.
- Chekning ikki nusxasidagi KASSIR satriga qo'l qo'ying.
- Mijoz kartasini terminal rideridan (o'qigichidan) chiqarib oling va mijozga chekning birinchi nusxasini bering.

#### BALANS SO'RASH

- Menyuda BALANS SO'RASH bandini tanlang (buning uchun F1-F4 tugmalari bosiladi) va yashil tugmani  $\rightarrow$  bosing.
- Operatsiyani o'tkazish uchun mijoz hisobini tanlang (oldindan belgilab qo'yilgan) va yashil tugmani  $\rightarrow$  bosib tasdiqlang  $\rightarrow$
- Mijozdan PIN kod kiritishini so'rang, yashil tugmani  $\rightarrow$  bosib tasdiqlang.
- Operasiya tugab, chek chiqishini kutib turing. Ikkinchi chekni chiqarish uchun yashil tugmani  $\rightarrow$  bosing.
- Mijoz kartasini terminal rideridan (o'qigichidan) chiqarib oling va mijozga chekning birinchi nusxasini bering.

#### Xizmat operatsiyasi

Xizmat operatsiyasini bajarish uchun terminal yuklashni boshlaydigan oynada yashil tugmani  $\rightarrow$  bosing (yuklash boshlanadigan oynaga o'tish uchun  $\rightarrow$  bekor qilish tugmasini **KARTANI KIRITING** yozuvi ko'ringuncha bosib turing).

Ekranda o'tkazish mumkin bo'lgan operatsiyalar ro'yxati ko'rinadi:

**CHEK NUSXASI** – oxirgi operatsiya cheki nusxasini olish uchun ishlatiladi.

**HISOBOT** – o'tkazilgan operatsiyalar haqidagi hisobotni beradi.

**XIZMAT OPERATSIYALARI** – quyidagilardan iborat bo'ladi:

**NATIJALARNI SOLISHTIRISH** – terminal hisobotini olish va o'tkazilgan operatsiyalarni solishtirish

**ALOQANI TEKSHIRISH** – kartaga xizmat qiladigan bank serveri bilan aloqa borligini tekshirish.

**MENYUNING KALITLARNI YUKLASH** va **EMV MA'LUMOTNI CHIQRARISH** menyularini ishlatmang.

**KO'RSATGICHLAR** – terminal ishlaydigan ko'rsatgichlarni to'g'rilash. Bank bilan kelishmasdan ko'rsatgichlarni o'zgartirmang.

**NATIJALARNI SOLISHTIRISH** majburiy kundalik operatsiya hisoblanadi. Bu operatsiya mijozlarga xizmat qiladigan vaqt tugagandan so'ng bajariladi. NATIJALARNI SOLISHTIRISH cheki o'tkazilgan operatsiyalar cheklari bilan birga saqlanadigan ma'lumotli hujjat hisoblanadi. Solishtirishda farq bo'lsa, maslahat olish uchun Sizga xizmat qiladigan bank filialiga murojaat qiling.

NATIJALARNI SOLISHTIRISH operatsiyasi bajarilmasdan oldin, o'tkazilgan operatsiyalardan tushgan pul mablag'lari Korxonaning hisobraqamiga o'tkazilmaydi.

#### Bo'lishi mumkin xatolar va ularni tuzatish

**PIN KOD NOTO'G'RI QAYTADAN YOZING** – PIN kod noto'g'ri kiritilgan, uchinchi marta noto'g'ri terilgandan so'ng karta bloklab (yopib) qo'yiladi.

**HOSTDAN JAVOB KELMADI** – terminal ulanganini tekshirib ko'ring, "Aloqani tekshirish" xizmat operatsiyasini bajaring.

**KARTA CHIQRARIB OLINDI** - karta terminal rideridan (o'qigichidan) chiqarib olingan, to'lovni amalga oshirish uchun qaytadan harakat qiling.

**QABUL QILINMADI. MABLAG' KAM** – mijoz hisobraqamidagi qoldiq pul mablag'i, to'lovni amalga oshirish uchun kiritilgan summadan (pul mablag'idan) kamroq.

**Terminal ishlashida biror xatolik bo'lsa yoki kelishmovchilik chiqsa, Sizga xizmat qiladigan bank filialiga murojaat qiling yoki bank ma'lumot markazining quyidagi telefoniga qo'ng'iroq qiling**  
**(+ 998 71) 200-88-99.**

## Korxonada xodimlariga terminaldan foydalanishni o'qitish BAYONNOMASI

Ushbu bilan Bank vakili Korxonaning quyidagi xodimlarini xalqaro plastik kartalarga xizmat qiladigan POS terminalidan foydalanishni o'qitganini tasdiqlaymiz:

<b>№</b>	<b>Familiyasi, ismi, otasining ismi</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>Imzo</b>

*Bayonnoma ikki nusxada tuzildi.*

**Korxonada rahbari**

*imzo MO'*

**F.I.SH.**

**"ORIENT FINANS" XATB xodimi**

*imzo*

**F.I.SH.**

**"ORIENT FINANS" XATB**  
\_\_\_\_\_ filialiga

**KAFOLAT XATI**

POS terminalni qaytadan dasturlab, xalqaro plastik kartaning o'zi bo'lmaganda ham to'lov qabul qilish uchun mijozlar xalqaro plastik kartalaridagi ma'lumotlarni qo'lda kiritish imkoniyatini ishlatib berishingizni so'raymiz.

Mijozlar xalqaro plastik kartalaridagi ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishi uchun javobgarlikni o'zimizga olamiz.

**Korxonra rahbari**

**M.O'.**

***Imzo***

**"ORIENT FINANS" XATB**  
\_\_\_\_\_ filialiga

**pul mablag'ini qaytarish haqida  
KORXONA YOZADIGAN XAT NAMUNASI**

Ushbu bilan bizning savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchasida quyidagi operatsiyalar bajarilganini ma'lum qilamiz:

**Sana:**

**Karta raqami:**

**Operasiya summasi:**

XXX miqdorda olingan pul mablag'ini yuqoridagi xalqaro plastik karta egasiga qaytarishingizni so'raymiz.

*Ilova: Chek nusxasi*

**Korxonra rahbari**

**M.O'.**

**Imzo**